

OILA - KOMIL INSON TARBIYASINING BESHIGI

Tangirbergenova Zaripa Djumabaevna

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
o'qituvchisi*

Rezyume: Maqolada farzand tarbiyada oilaning o'rni va roli haqida so'z boradi. Farzandlarni oilada mehnat orqali tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki qadimdan mehnat - tarbiyaning asosi bo'lib hisoblangan.

Tayanch so'zlar: oila, farzand, ota-ona, sog'lom avlod, hurmat, tarbiya.

Резюме В статье идет речь о места и роли семьи в воспитании ребенка. Особое значение имеет трудовое воспитание детей в семье. Потому что уже давно труд является основой воспитания

Ключевые слова: семья, дети, родители, здоровое поколение, уважение, воспитание

Summary: The article talks about the place and role of the family in the upbringing of a child. Of particular importance is the labor education of children in the family. Because for a long time work has been the basis of education.

Keywords: family, children, parents, healthy generation, respect, upbringing

Yurtimizda ta'lim-tarbiyaga bo'lgan e'tibor kuchayotgan bir sharoitda o'z navbatida yosh avlod ham bilim olishga, oliy ma'lumotli bo'lishga, ma'naviyatimiz rivojiga hissa qo'shayotgani quvonarli hol.

Albatta, oila farzand tarbiyasining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Buning bir nechta sabablari bor: Birinchi muhit: Farzand dunyoga kelganidan boshlab, uning birinchi muhiti oila bo'ladi. U oila a'zolaridan nutqni o'rganadi, dunyoqarashini shakllantiradi va hayotiy ko'nikmalarni o'zlashtiradi. Ota-ona farzand uchun eng yaqin va eng muhim namuna hisoblanadi. Farzand ota-onasining xatti-harakatlarini, so'zlarini va munosabatlarini kuzatib, ulardan o'rnak oladi. Oila farzandga muhabbat, g'amxo'rlik va himoya beradi. Bu farzandning psixologik va emotsional rivojlanishi uchun juda muhim. Oila farzandga o'z qadriyatlarini o'rgatadi. Bularga halollik, adolat, mehnatsevarlik, hurmat va boshqalar kiradi.

Oila farzandga ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatadi. Bularga muloqot qilish, hamkorlik qilish, muammolarni hal qilish va boshqalar kiradi. Agar oilada sog'lom muhit hukm sursa, ota-ona farzandiga to'g'ri tarbiya bersa, farzand barkamol inson bo'lib yetishadi. Aksincha,

oilada nizolar bo'lsa, ota-ona farzandiga e'tibor bermasa, farzandning tarbiyasi buzilishi mumkin.

Shuning uchun, ota-onalar o'z farzandlariga to'g'ri tarbiya berish uchun harakat qilishlari kerak. Ular farzandlariga muhabbat va g'amxo'rlik ko'rsatishlari, ularga namuna bo'lishlari, ularga qadriyatlarni o'rgatishlari va ularga ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatishlari kerak.

Manbalarda keltirilishicha, bola tarbiyasi uch bosqichda amalga oshadi. Birinchisi – turmush qurgunga qadar yigit va qizni oilaga tayyorlash hamda munosib jufti halol tanlash, ikkinchisi – homila davridagi parvarish, uchinchisi – farzand dunyoga kelgan kundan boshlab beriladigan tarbiya. Farzand tarbiyasining birinchi bosqichida turmush qurish arafasida turgan bo'lg'usi kelin va kuyovlarni oilaviy turmushga tayyorlash masalalari e'tiborga olinadi. Bo'lg'usi kelin-kuyovlar o'zlari oilaviy turmush haqidagi bilimlarni egallashi va o'zlari ham tarbiyalangan bo'lishlari bilan birga odobli va salohiyatli juft tanlashlari muhimdir. Farzand tarbiyasidagi bu bosqich to'g'ri asosda yo'lga qo'yilsa, keyingi jarayonlar ham ijobiy tomonga qarab ketishiga zamin tayyorlanadi va bunda nikoh masalasining ahamiyati salmoqlikdir⁶².

Ba'zi ota-onalar farzandlari bilan kamroq muloqotda bo'lishi, ulardan o'zlarini uzoqroq olib yurishi bilan obro' orttirishni o'ylashadi. Ularni nazarida, go'yo farzand bilan qancha kam uchrashilsa, shuncha ko'proq obro' qozonish mumkin. Bu mutlaqo noto'g'ri tushuncha, ota-ona o'z farzandi bilan qancha kam muloqotda bo'lsa, ular o'rtasida begonalashish, loqayd bo'lish holatlari kelib chiqadi.

Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar-yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.

Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador kunikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila – haqiqiy ma'naviyat uchogi, g'oyaviy tarbiya omili va muxitidir. Binobarin, milliyligimizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga avvalo oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar ugiti, ota ibratini, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

Jamiyatdagi o'zgarishlar oilaga ta'sirini qo'rsatganidek, oiladagi o'zgarishlar ham jamiyatga o'z ta'sirini qo'rsatadi. Oila davlatning, jamiyatning asosiy tayanchi ekan, uning mutsahqamligi, tinch-totuvligi, farovonligi va barqarorligidan jamiyat manfaatdordir. Oilada

⁶² FARZAND TARBIYASI QACHONDAN BOSHLANADI? HUSNIDDIN NORQULOV, "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. <https://api.moiti.uz/media/book/farzand.pdf>

ma'naviy va jismoniy yetuq avlodni shakllantirish, yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, zamonaviy qasb-hunar sirlari bilan qurollantirish lozim.

Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilguncha javobgardir.

Oilaning asosiy vazifasi xam jamiyatga fidoyi, komil insonlarni yetishtirib berishdan iborat. Zero, sog'lom bola sog'lom oilaning mevasidir. Sog'lom oila esa ma'naviy sog'lom muhitdagina paydo bo'ladi. Sog'lom inson deganda, faqat jismoniy sihat-salomatlikni emas, balki o'zbek xalqiga xos sharqona odob-axloq, milliy g'oya va bag'rikenglik, insonparvarlik kabi ezgu his-tuyg'ular ruhida kamol topgan ma'nan yetuk insonni tushunishimiz mumkin.

Haqiqatdan ham, chetdan yurtimizga "ommaviy madaniyat" niqobi ostida kirib kelayotgan axloqiy buzuvchiliklar, egotsentrizm, individualizm, zo'ravonlik g'oyalarini tarqatishga urinishlar yurtdoshlarimizning, ayniqsa, yosh avlodning ongi va qalbini zaharlab ularning milliy ma'naviy dunyosiga tahdid qilmasligiga kafolat yuq.

Xulosa qilib aytganda, Globallashuv jarayonining chuqurlashib borishi natijasida inson uchun xavfli noan'anaviy tahdid eng xavflilari insonlarning ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali millatlarning qadriyatlarini va turmush tarzini izdan chiqarishga qaratilgan axloq-odob, oila va jamiyat hayotida jiddiy ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy tahdidlar hisoblanadi. Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Xalqimizda «qush uyasida ko'rganini qiladi» deb bejiz aytilmagan. Oilada amalga oshadigan ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shaxs ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi, ijtimoiy hayotga kirib boradi.

ADABIYOTLAR

1. Shoumarov F. B., Shoumarov SH.B. Muhabbat va oila.-Toshkent, «Ibn Sino», 1994.-120s.
2. Qo'chqorova Z. Kelajak poydevori.-Qoraqalpog'iston tungi.-Nukus, 2012.-2
3. Faxr ul Banot Sibg'atulloh qizi. Oila saboqlari. —Toshkent. 1992.-966.79.
4. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari, - T.: «Ma'naviyat», 1998, -112 b.
5. Farzand tarbiyasida otaning mas'uliyati, vazifasi va majburiyati. M.Hasanova, oydiyol.uz